

BYUDJETDAN TASHQARI JAMG`ARMALAR MABLAG`LARI HISOBI VA NAZORATINING NAZARIY ASOSLARI

Ilmiy rahbar: Qurbonboyev Jurabek Eruvbayevich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Bank ishi va buxgalteriya kafedrasи

iqtisodiy fanlar nomzodi dotsent

Rixsитillayeva Madinaxon Izzatilla qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

Tel: +998917873555

Email: allayorovamadina55@gmail.com

Annotatsiya: Davlat byudjetiga chet el valyutasida to`lanadigan soliqlar, yig`imlar va majburiy to`lovlar, shuningdek byudjet tashkilotlarining chet el valyutasida tushadigan byudjetdan tashqari mablag`lari G`aznachilikning bankdagi valyuta hisob varaqlariga kiritiladi. Byudjetni g`azna ijrosiga o`tilishi byudjet mablag`lari bilan birga byudjetdan mablag` oluvchi tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag`lari ham to`laligicha g`azna ijrosiga qamrab olindi.

Kalit so`zlar: Davlat byudjeti, G`aznachilik tizimi, nazorat, nazariy asoslar, daromadlar, harajatlar.

KIRISH

Davlat byudjeti ijrosining G`aznachilik tizimi joriy qilinib, bujet daromadlari va xarajatlarining ijrosi kassa usulida amalga oshirilishi mablag`larni samarali va maqsadli sarflash hamda nazorat qilish imkoniyatini bermoqda. Byudjet tashkilotlari xarajatlarining to`lovi g`aznachilik orqali amalga oshirilib, byudjet mablag`larini ortiqcha band qilmaslikni ta`minlamoqda. Islohotlarni amalga oshirish davomida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag`lari ham g`aznachilikka qamrab olinib uning kassa ijrosi ham g`aznachilik tomonidan amalga oshirilmoqda. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag`larining tashkilot shaxsiy hisobraqamiga kelib tushishi va sarflanishi kassa usulida g`aznachilikda hisobga olinadi. Byudjet tashkilotlarida esa byudjetdan tashqari mablag`larning tashkilot

shaxsiy hisobraqamiga kelib tushishi va sarflanishi kassa va hisob usulida aks ettiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Byudjet tashkilotlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414 sonli “Byudjet tashkilotlarini mablag` bilan ta`minlash tartibini takomillashtirish to`g`risida”gi qaroriga asosan byudjetdan tashqari mablag`larni shakllantirishlari mumkin.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg`armalar daromadlari – bu tashkilotning faoliyat ixtisosligi bo`yicha mahsulot (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan, balansda bo`sh turgan binolarni ijara berishdan, homiylikdan va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olgan pul mablag`laridir.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg`armalari bo`yicha xarajatlari – tashkilotning qonun hujjatlariga muvofiq byudjetdan tashqari xarajatlar smetasi doirasida xarajatlar iqtisodiy tavsifi bo`yicha amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag`lari bo`yicha daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobini tashkil qilish, mablag`larni smetalar doirasida sarflashning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini ta`minlashga xizmat qilib, mablag`lar oqimini nazorat qilish uchun axborotlar bilan ta`minlaydi.

O`zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 44- moddasiga ko`ra byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg`armalari quyidagilardir:

- byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg`armasi mablag`lari;
- tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag`batlantirish va rivojlantirish jamg`armasi mablag`lari;
- vazirliklar, davlat qo`mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg`armalari mablag`lari;
- byudjet tashkilotining undiriladigan to`lovlar hisobiga shakllantiriladigan byudjetdan tashqari mablag`lari.

Byudjetdan tashqari jamg`armalar mablag`lari hisobi va nazoratining nazariy asoslari haqida gapirganda, bu sohada bir qancha muhim tushunchalar, metodologiyalar va amaliy jihatlar mavjud. Ushbu mavzu davlat va boshqa tashkilotlarning moliyaviy boshqaruvi, mablag`larni samarali taqsimlash va ularni nazorat qilishni o`z ichiga oladi. Keling, asosan bu mavzu haqida umumiy tushunchalarni ko`rib chiqaylik:

1. Byudjetdan tashqari jamg‘armalar:

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar — bu davlat yoki boshqa tashkilotlar tomonidan byudjetdan tashqari, ma'lum bir maqsadlar uchun yig‘iladigan va sarflanadigan mablag‘lardir. Ular byudjet mablag‘laridan farqli o‘laroq, ba'zan maxsus qonunlar yoki qarorlar asosida tashkil etiladi. Byudjetdan tashqari jamg‘armalar, asosan quyidagi maqsadlar uchun tashkil etiladi:

- Ijtimoiy yordamlar va pensiyalar;
- Sog‘liqni saqlash, ta'lim yoki madaniyat kabi sohalarda maxsus dasturlarni moliyalashtirish;
- Tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlar uchun zaxira fondlari.

2. Jamg‘armalar mablag‘lari hisobining nazariy asoslari:

Jamg‘armalar mablag‘lari hisobining nazariy asoslari davlat moliyasi va byudjet tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy va huquqiy mezonlarga tayanadi. Ular quyidagi asosiy tushunchalarga ega:

- **Byudjetdan tashqari mablag‘larning manbalari:** Jamg‘armalar ko‘pincha ma'lum bir soliq, yig‘imlar yoki to‘lovlardan tashkil topadi. Ular ma'lum sohalarda samarali ishlatalishi uchun aniq belgilangan maqsadlarga yo‘naltiriladi.
- **Moliyaviy resurslar va ularning taqsimlanishi:** Byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘larini samarali taqsimlash va sarflashda iqtisodiy samaradorlik,adolat va shaffoflik kabi asosiy tamoyillar amal qiladi.
- **Nazorat va hisobning muhimligi:** Byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘larining samarali ishlatalishini ta'minlash uchun ularni qat’iy nazorat qilish zarur. Bu, avvalo, jamg‘armalarning qonuniy va maqsadli ishlatalishini nazorat qilishni, shuningdek, hisobdorlikni ta'minlashni o‘z ichiga oladi.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq byudjet tashkilotlarini byudjetdan tashqari mablag‘lari Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalarida ochilgan hisob raqamlarida hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida byudjet mablag‘lari

bo`yicha tejab qolingan mablag`lar, faoliyati turiga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar, balansida bo`lgan davlat mulkini ijaraga berishdan qonun hujjatlariga muvofiq olingan mablag`larning bir qismi, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan homiylik yordami (beg`araz yordam) hisobidan shakllantirilishi belgilangan. Shuningdek, byudjetdan tashqari mablag`lari hisobiga birinchi navbatda kreditorlik qarzlarni tugatish, moddiy texnika ba`zasini mustaxkamlash, xodimlarni moddiy rag`batlantirishga yo`naltirilishi belgilangan.

METODLAR

Ta`lim muassasalarida O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 26 fevraldada 2431-son bilan ro`yxatdan o`tgan “Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida o`qitishning to`lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag`larni taqsimlash tartibi to`g`risida”gi nizomga ko`ra o`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan mablag`lar tushimi amalga oshiriladi va ular hisobiga xarajatlar amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlarining boshqa byudjetdan tashqari mablag`lari bo`yicha boshqa tushumlar ikkilamchi xomashyoni topshirishdan tushgan tushumlar, keraksiz va eskirgan moddiy qiymatliklarni sotishdan tushgan tushumlar, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlar hisobidan shakllanadi va ular hisobiga xarajatlar amalga oshiriladi.

NATIJALAR

Vazirliklar, davlat qo`mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg`armalari mablag`larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida tartibda belgilanadi. Bundan tashqari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag`lari rasman o`rnatilgan undiriladigan to`lovlar hisobidan ham shakllanadi. Ularning tarkibi Byudjet kodeksining 63-moddasi bilan belgilab qo`yilgan. Unga ko`ra, byudjet tashkilotlari tomonidan byudjetdan tashqari mablag`lar quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

- o`quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta`lim muassasalarida, umumta`lim mакtablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida, maktab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejlari va boshqa ta`lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun;

- o`quvchilar bolalar musiqa va san`at maktablari hamda mактабдан ташқари та`лим muassasalarida ta`lim olganligi uchun;
- oliy va o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalarida ta`lim olganlik uchun;
- statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagи undiriladigan to`lovlar.

Undiriladigan to`lovlarining miqdorlari, ularni kiritish va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek undiriladigan to`lovlar bo`yicha imtiyozlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Byudjet tashkilotlari yuqorida keltirilgan manbalar bo`yicha byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanadi. Ya`ni har bir manba bo`yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlar belgilangan tartibda moliya organlari tomonidan ochiladi va g`azna dasturiga kiritiladi. Moliya organlari tomonidan byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag`lari uchun hisobvaraqlari quyidagi hujjatlar asosida ochiladi:

a) moliya organi rahbari yoki uning o`rnini bosuvchi shaxsning ruxsat beruvchi yozushi qo`yilgan byudjetdan mablag` oluvchining arizasi. Agar, byudjetdan mablag` oluvchi bir vaqtning o`zida yuridik shaxs maqomiga ega bo`lmagan, quyi byudjetdan mablag` oluvchilar uchun byudjet mablag`larini taqsimlovchi bo`lsa, tegishli shaxsiy hisobvaraqlar ochish uchun bir nusxada ariza, unga ilova qilib xizmat ko`rsatiladigan quyi byudjetdan mablag` oluvchilarning ro`yxati taqdim etiladi.

b) byudjetdan tashqari mablag`larning tushumlari va xarajatlari limiti ko`rsatilgan (tushumlari va mablag`larning xarajat qilinish yo`nalishlari limitlanmagan byudjetdan tashqari mablag`lari bundan mustasno) tegishli smeta xarajatlarining nusxasi. Bunda, yuridik shaxs maqomiga ega bo`lmagan, quyi byudjetdan mablag` oluvchilar xarajatlarining o`rnatilgan tartibda hisobini yurituvchi va xizmat ko`rsatuvchi byudjetdan mablag` oluvchilar uchun, xizmat ko`rsatilayotgan quyi byudjetdan mablag` oluvchilarning byudjetdan tashqari xarajatlari hisobini yuritish uchun (byudjet tasnifi xarajatlarining har bir paragrafi bo`yicha tuzilgan umumiylar smetasi asosida) hisobvaraqlar ochiladi.

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanishning o`ziga xos hususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkun:

- byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanish kassa usulida amalga oshirilishi;
- byudjetdan tashqari mablag`lar manbalari bo`yicha alohida shahsiy hisob varaqalarida aks ettirilishi;
- byudjetdan tashqari mablag`lar tushumi hamda ular hisobiga xarajatlarni byudjet tasnifi asosida aks ettirilishi;
- byudjetdan tashqari mablag`lar smetalar asosida xarajat qilinishi;
- byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanishda qat`iy qonunchilik talablariga amal qilish.

Byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanishda kassa usulidan foydalanish, ya`ni mablag`larni hisobraqamiga kelib tushgan va ular bo`yicha xarajatlar amalga oshirilgan vaqtdagina tan olishni tushunish mumkun. Bundan ko`rinadiki byudjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha oldindan, mablag` kelib tushish sanasidan oldin, ushbu mablag`lar bo`yicha operatsiya amalga oshirishning iloji yo`q. Bu esa debtorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish bilan bir qatorda byudjet mablag`laridan muntazam foydalanishga sabab bo`ladi.

Qonun hujjatlarida byudjetdan tashqari mablag`larning sarfi bilan bog`liq belgilangan tartibdan kelib chiqib, byudjetdan tashqari mablag`lar manbalari bo`yicha alohida hisobvaraqlarda yuritiladi va ularning smetali asosda xarajat qilinishi, ushbu mablag`lar nazorati va maqasadli sarflanishiga oydinlik kiritadi.

Qonunchilikda ushbu mablag`lar bo`yicha o`rnatilgan tartiblar, mablag`larning o`zboshimchalik va boshqa maqsadlar uchun foydalanimaslikni oldini olishga xizmt qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag`lari bo`yicha shaxsiy hisobvaraqlarini ochish uchun ilgari byudjet mablag`lari bo`yicha hisobvaraqlarni ochish uchun taqdim etilgan imzo namunalari kartochkalari ishlatiladi. Byudjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi, shuningdek byudjetdan tashqari mablag`larning kassa xarajatlari kelib tushgan byudjetdan tashqari mablag`lar

doirasida amalga oshiriladi va byudjet mablag`lari kabi bir xil tartibda rasmiylashtiriladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Magistrant tomonidan ishlab chiqilgan
2. S.U Mehmonov “Byudjet hisobi” o`quv qo`llanma. Toshkent 2012
3. (Ostonokulov, 2021). Budget tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari hisobi va hisoboti uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2021. – 64 b.;
4. (Bakaybayeva, 2020). O‘zbekiston Respublikasida budget hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo‘llari. i. f. d. dis. avt. –T.: 2020.
5. (Ibragimov, 2018). Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta’lim muassasalari misolida). iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2018. – 54 b.;
6. (Mehmonov, 2016). Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: “Iqtisod moliya”, 2016.;
7. (Ostanaqulov, 2010). Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2010. 8. (G‘aniyev, 2008). Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta’lim tizimi misolida). iqt. fan. nom. dis. avtoreferati. –T.: O‘z R BMA., 2008. 28 b.
8. (Tuychiyev, 2019). Budget tashkilotlarida budget xisobi. Darslik. “Iqtisod-moliya” 2019. 429 b.

Research Science and Innovation House